



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING  
BUYRUG'I**

20~~21~~ yil “18” Dekabr

No 547

Toshkent sh

**Toshkent tibbiyot akademiyasining Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi hamda ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risidagi yangi tahrirdagi Nizomini tasdiqlash va Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya hamda ko'krak nishoni sohiblarini aniqlash bo'yicha tanlovni o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdag'i "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish hamda Adiblar hiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 502-sonli qarori ijrosini ta'minlash va Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya hamda ko'krak nishonini ta'sis etish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A.Bobomuratovga:

- Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o'rnlarda-TTA) "Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi hamda ko'krak nishoni ta'sis etish to'g'risida"gi yangi tahrirdagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Barcha fakultet dekanlari (B.T.Xolmatova, I.I.Bahriyev, A.A.Xamrayev, F.I.Salomova, U.E.Eraliyev, J.X.Tursunov), Magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imomov, Xotin qizlar kengashi raisi L.Q.Abduqodirovalarga:

- TTAning Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi hamda ko'krak nishoni tanlovini (keyingi o'rnlarda-Tanlov) o'tkazish bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi lavozim bo'yicha 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

- TTA rasmiy veb-sayti va talabalar telegram kanallarida tanlov to'g'risida ma'lumotlar berib borilsin;

- 2022-yil 28-fevralga qadar TTAning Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi hamda ko'krak nishoni tanlovi Nizomga muvofiq o'tkazilsin;

- 2022-yil 1-mart kuni shoira Zulfiya tavallud kuni munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirda maxsus stipendiyaga sazovor bo'lgan talabalarga "Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya sovrindori" guvohnomasi, ko'krak nishoniga sazovor bo'lgan talabalarga ko'krak nishoni va uning guvohnomasi taqdim etilsin.

**Kiritildi:**

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat  
va ma'rifat bo'limi boshlig'i

**M.A.Xasanova**

**Kelishildi:**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

**Sh.A.Boymurodov**

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha prorektor

**T.A.Bobomuratov**

Reja-moliya bo'limi boshlig'i

**O.U.Gaipov**

Bosh buxgalter

**A.Sh.Yulchiyev**

Yuriskonsult

**B.N.Shukurov**

**3.** Har yili shoira Zulfiyaning tavallud kuniga qadar akademiya talaba-yoshlari o'rtasida ijodiy tanlovlardan o'tkazilsin.

**4.** Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Gaipov va bosh buxgalter A.Sh.Yulchiyevlarga:

- Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya va ko'krak nishoni sovrindorlariga Nizomda ko'rsatilgan tartibda stipendiya belgilansin va pul mukofotlari taqdim etilsin.

**5.** TTA rektorining 2020 yil 28-sentyabrdagi 514-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Toshkent tibbiyot akademiyasining Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya va ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi Nizomi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**6.** Mazkur buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor T.A.Bobomuratov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



A.K.Shadmanov

**Kiritildi:**

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat  
va ma'rifat bo'limi boshlig'i

**M.A.Xasanova**

**Kelishildi:**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

**Sh.A.Boymurodov**

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha prorektor

**T.A.Bobomuratov**

Reja-moliya bo'limi boshlig'i

**O.U.Gaipov**

Bosh buxgalter

**A.Sh.Yulchiyev**

Yuriskonsult

**B.N.Shukurov**

**Toshkent tibbiyot akademiyasida shoira Zulfiya nomidagi  
maxsus stipendiya va ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risida  
NIZOM**

**1- bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda TTA) talabalariga Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya (keyingi o‘rinlarda - maxsus stipendiya) tayinlash va to‘lash, shuningdek, Zulfiya nomidagi ko‘krak nishoni (keyingi o‘rinlarda - ko‘krak nishoni) bilan taqdirlash tartibini belgilaydi.

2. Maxsus stipendiya va ko‘krak nishoni TTAda Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish, faoliyatini yoritish, ilmiy tadqiq qilish hamda targ‘ib etish yo‘nalishida izlanish olib borayotgan, alohida faollik ko‘rsatgan o‘qituvchi va talabalarni rag‘batlantirish maqsadida ta’sis etiladi.

**2-bob. Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyani tayinlash  
tartibi va mezonlari**

3. Maxsus stipendiya kvotasi TTAdagi fakultetlar sonidan kelib chiqib, har bir fakultet bo‘yicha bittadan alohida-alohida ajratiladi.

4. Maxsus stipendiya quyidagi mezonlarga javob beradigan TTAning kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan bakalavriatining 1-5-bosqich hamda magistraturasining 1-2-bosqich talabalariga beriladi:

- maxsus stipendiya shoiraning hayoti va ijodini o‘rganish, faoliyatini yoritish, ilmiy tadqiq qilish va targ‘ib etish yo‘nalishida izlanish olib borish;
- adabiyot va kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yo‘nalishida alohida faollik ko‘rsatish;
- adabiyot va kitobxonlikka doir konferensiyalarda (tanlovlarida) qatnashish;
- nashr etilgan ishlarning (asarlarning) mavjudligi.

5. Maxsus stipendiya tayinlanishida talabgorlarning ushbu Namunaviy nizomning 4-bandida belgilangan mezonlarga muvofik bilim va ijodiy tayyorgarlik darajasini sinovdan o‘tkazish maqsadida TTA tomonidan:

- maxsus stipendiyaga talabgorlar orasidan tanlab olish uchun ta’lim yo‘nalishlari va adabiyot sohasidagi mutahassislardan iborat tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Tanlov komissiyasi) tuziladi va uning ish tartibini belgilaydi;

- adiblar hayoti va ijodi bo‘yicha test sinovlari (keyingi o‘rinlarda – test sinovi) savollarini tasdiqlaydi.

6. Talabgorlar dastlabki ko‘rib chiqish uchun fakultet ilmiy kengashiga har yili 10-yanvarga qadar quyidagi hujjatlarni topshiradilar:

**Kiritildi:**

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat  
va ma'rifat bo'limi boshlig'i

**M.A.Xasanova**

**Kelishildi:**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

**Sh.A.Boymurodov**

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha prorektor

**T.A.Bobomuratov**

Reja-moliya bo'limi boshlig'i

**O.U.Gaipov**

Bosh buxgalter

**A.Sh.Yulchiyev**

Yuriskonsult

**B.N.Shukurov**

- sinov daftarchasidan ko‘chirma (o‘zlashtirish ko‘rsatkichi);
- kafedra tavsyanomasi;
- ijodiy (ilmiy) ish, uning annotatsiyasi va taqriz (mavjud bo‘lsa);
- murabbiyning fikr-mulohazalari;
- muayyan adib hayoti va ijodi hamda faoliyatini (ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va boshka) targ‘iboti bo‘yicha materiallar;
- muayyan adib hayoti va ijodini, faoliyatini tadqiq qilish bo‘yicha respublika va xalqaro miqyosdagi jurnallarda chop etilgan yakka mualliflikdagi ilmiy maqolalar, o‘tkazilgan anjumanlardagi faol ishtirokini tasdiqlovchi hujjat (asl nusxasi);
- o‘z sohasi bo‘yicha xalkaro yoki respublika darajasidagi ko‘rgazma, bannerlar, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtiroki va natijalarga erishganligi (mavjud bo‘lsa) to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjat.

Barcha hujjatlar ikki nushada, har bir nushasi alohida jildga joylangan holda taqdim qilinadi. Har bir jild muqovasida taqdim qilayotgan fakultetning nomi, talabgorning ismi va familiyasi, ishning nomi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

7. Fakultet ilmiy kengashi har yili 20 yanvarga qadar talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqib, mahsus stipendiyaga nomzodlarni tavsiya etish, nomzodlikka talabgorlarning o‘qishdagi va ijodiy (ilmiy) faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini baholash uchun muhokamaga qo‘yadi.

Muhokamadan so‘ng yashirin ovoz berish yo‘li bilan eng munosib talabgorlar tanlab olinadi. Bunda talabgor va uning ishi uchun ovoz berishda ishtirok etgan kengash a’zolarining uchdan ikki qismidan ortig‘i ovoz berganda, nomzod talabalar ma’qullangan hisoblanadi va ularning nomzodini fakultet ilmiy kengashi Tanlov komissiyasiga kiritish maqsadida fakultet dekanatiga takdim etadi.

Fakultet dekanati har yili 31 yanvarga qadar nomzodlarning hujjatlarini Tanlov komissiyasiga taqdim etadi.

#### 8. Tanlov komissiyasi:

- har yili 10 fevralga qadar talabgorlar bilan test sinovi hamda suhbat o‘tkazadi;

- har yili 15 fevralga qadar nomzodlarning so‘nggi tanlovini yashirin ovoz berish yo‘li bilan tashkil etadi, bunda talabgor va uning ishi uchun ovoz berishda ishtirok etgan komissiya a’zolarining uchdan ikki qismi yoqlab ovoz berganda, ushbu nomzodni maxsus stipendiyasi tayinlash uchun tavsiya qiladi;

- har yili 20 fevralga qadar maxsus stipendiyasi tayinlash uchun tavsiya etish to‘g‘risidagi qarorni TTA ilmiy kengashiga taqdim etadi.

9. Tanlov komissiyasining maxsus stipendiyani tayinlash to‘g‘risidagi qarori asosida har yili 28 fevralga qadar TTA ilmiy kengashining qarori qabul qilinadi. TTA ilmiy kengashining maxsus stipendiyani tayinlash to‘g‘risidagi qarori rektor buyrug‘i asosida kuchga kiradi.

10. Maxsus stipendiyaga sazovor bo‘lgan talabalarga har yili 1 mart sanasida “Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi sovrindori” guvohnomasi (keyingi o‘rinlarda - guvohnoma) beriladi.

**Kiritildi:**

Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat  
va ma'rifat bo'limi boshlig'i

**M.A.Xasanova**

**Kelishildi:**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

**Sh.A.Boymurodov**

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha prorektor

**T.A.Bobomuratov**

Reja-moliya bo'limi boshlig'i

**O.U.Gaipov**

Bosh buxgalter

**A.Sh.Yulchiyev**

Yuriskonsult

**B.N.Shukurov**

11. Maxsus stipendiya talabalarga har yili, bir o‘quv yili uchun 1 sentyabrdan boshlab belgilangan miqdorga qat’iy rioya qilingan holda tayinlanadi.

Maxsus stipendiya miqdori Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 yanvardagi 59-son qarori 2-ilovasining 2-bandiga muvofiq belgilanadi.

12. Talaba o‘qishini boshqa oliv ta’lim muassasasiga ko‘chirganda yoki akademik ta’til olganda maxsus stipendiya to‘lanmaydi. Bakalavriatning 6-bosqich hamda magistraturaning 3-bosqich talabalariga maxsus stipendiya o‘qigan davri uchun to‘lanadi.

### **3-bob. Zulfiya nomidagi ko‘krak nishoni bilan taqdirlash tartibi**

13. Ko‘krak nishoni bilan TTAda madaniyat va ma’rifat sohasini rivojlantirish, adiblar hayoti va ijodini chuqur o‘rganish hamda aholi o‘rtasida, shuningdek, dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish borasida yuqori natijalarga erishgan TTAning professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlari taqdirlanadi.

14. Ko‘krak nishoni bilan ushbu nizomga muvofiq TTA rektori taqdirlaydi.

15. TTAda ko‘krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzodlarni tanlash va tayinlash bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda - Ishchi guruh) tuziladi.

Ishchi guruh tarkibiga adabiyotshunos olim va mutahassislar, shuningdek, fuqarolik jamiyati instituti vakillari kiritiladi. Ishchi guruh tarkibi TTA rektori tomonidan tasdiqlanadi.

Ishchi guruh Nizomga muvofiq ko‘krak nishoniga tavsiya etilgan nomzodlar hujjatlarining xolis va adolatli ko‘rib chiqilishi uchun mas’ul.

16. Ko‘krak nishoni kvotasi TTAdagi fakultetlar sonidan kelib chiqib, har bir fakultet bo‘yicha bittadan ajratiladi.

TTAning tarkibiy bo‘linmalari va tegishliligi bo‘yicha dekanatlari ko‘krak nishoni bilan taqdirlash bo‘yicha takliflarni TTAning Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limiga xar yili 1 fevralga qadar taqdim etadi.

Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi nomzodlar bo‘yicha takliflarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi hamda har yili 15 fevralga qadar TTA Ishchi guruhiga takdim etadi.

17. Ko‘krak nishoniga tavsiya etilgan nomzodlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Ishchi guruh yig‘ilishida nomzodlarning hujjatlari o‘rganilib, har yili 20 fevralga qadar eng munosib nomzodlar to‘g‘risida yakuniy xulosa qabul qilinadi hamda TTA rektoriga taqdim etiladi.

TTA rektorining ko‘krak nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risidagi buyrug‘i har yili 28 fevralga qadar chiqariladi.

18. Ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi har yili 1 mart sanasida TTA rektori tomonidan tantanali ravishda topshiriladi.

19. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir marta to‘lanadigan pul mukofoti oladilar.

**Kiritildi:**

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat  
va ma'rifat bo'limi boshlig'i

**M.A.Xasanova**

**Kelishildi:**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

**Sh.A.Boymurodov**

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha prorektor

**T.A.Bobomuratov**

Reja-moliya bo'limi boshlig'i

**O.U.Gaipov**

Bosh buxgalter

**A.Sh.Yulchiyev**

Yuriskonsult

**B.N.Shukurov**

Bir marta to'lanadigan pul mukofotlari TTAning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan (o'qitishning bazaviy qiymati miqdoridan oshadigan qismida to'lov-kontrakt asosida o'qishdan tushadigan tushumlar) ichki imkoniyatlardan kelib chiqib moliyalashtiriladi.

20. Bir shaxs ko'krak nishoni bilan bir marta mukofotlanadi.

Ko'krak nishoni davlat mukofotlaridan keyin ko'krakning chap tomoniga taqiladi.

#### **4-bob. Ko'krak nishonining tavsifi**

21. Ko'krak nishoni 0,25 mikron qalinlikda oltin rangli mis qotishmasidan tayyorlanadi va diametri 34 millimetrlidir shaklida bo'ladi.

Ko'krak nishonining markazida shoira qiyofasi aks ettiriladi. Ko'krak nishonining aylanasi bo'ylab, yuqori qismida oq emal fonida adibning tahallusi yoki ismi yozilgan buladi. Aylananing quyi qismida shoira kalamiga mansub hikmatli so'z joylashtirilishi mumkin. Harflar balandligi - 2,2 millimetr.

22. Ko'krak nishonining orqa tomonida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlanadi.

Ko'krak nishonining qalinligi - 3 millimetr.

Yozuv va tasvirlar - bo'rtma.

Ko'krak nishonining old va orqa tomonlarining chetlari qabariq doira bilan o'ralgan bo'ladi.

Ko'krak nishoni ilmoq va halqa yordamida besh qirrali qadagichga ulanadi.

Qadag'ichning orqa tomoniga ko'krak nishonini kiyimga taqib qo'yish uchun to'gnog'ich ko'rinishidagi moslama o'rnatiladi.

23. Ko'krak nishonining tavsifi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda TTA tomonidan tasdiqlanadi.

#### **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

24. Kundalik darslarni o'zlashtirmaydigan, o'quv intizomini va odob-ahloqni buzgan talabalarni o'quv yili mobaynida fakultet kengashining tavsiyasiga binoan TTA rektori buyrug'i asosida maxsus stipendiyadan mahrum qilinishi mumkin.

25. Maxsus stipendiya va ko'krak nishoni bilan taqdirlash bo'yicha ariza va shikoyatlar qonun hujatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

**Kiritildi:**

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat  
va ma'rifat bo'limi boshlig'i

**M.A.Xasanova**

**Kelishildi:**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

**Sh.A.Boymurodov**

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy  
ishlar bo'yicha prorektor

**T.A.Bobomuratov**

Reja-moliya bo'limi boshlig'i

**O.U.Gaipov**

Bosh buxgalter

**A.Sh.Yulchiyev**

Yuriskonsult

**B.N.Shukurov**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
 2021 yil “18” 12 dagi  
547-sonli buyrug‘iga 2-ilova

**Toshkent tibbiyot akademiyasining Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi  
 hamda ko‘krak nishoni tanlovinini o‘tkazish bo‘yicha  
 TANLOV KOMISSIYASI**

| Nº | F.I.O.                          | Lavozimi   | Tanlov komissiyasidagi o‘rni |
|----|---------------------------------|--|------------------------------|
| 1  | Bobomuratov Turdiqul Akramovich | Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor                                  | Rais                         |
| 2  | Xolmatova Barno Turdixodjayevna | 1-son davolash fakulteti dekani  | A’zo                         |
| 3  | Bahriyev Ibrohim Isomiddinovich | 2-son davolash fakulteti dekani  | A’zo                         |
| 4  | Salomova Feruza Ibodullayevna   | Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti  | A’zo                         |
| 5  | Xamrayev Abror Asrorovich       | Tibbiy pedagogika va xalq tabobati fakulteti dekani  | A’zo                         |
| 6  | Eraliyev Umid Ergashevich       | Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliv ma’lumotli hamshira fakulteti dekani | A’zo                         |
| 7  | Djurayeva Gulnoza Tulqunovna    | Iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i                   | A’zo                         |
| 8  | Xasanova Mashhura Abduvaliyevna | Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i                                    | A’zo                         |
| 9  | Umarov Jasur Mirhomidovich      | Yoshlar ittifoqining Toshkent tibbiyot akademiyasi boshlang‘ich tashkiloti yetakchisi              | A’zo                         |
| 10 | Abduqodirova Lola Qobulovna     | Xotin qizlar kengashi raisi  | A’zo                         |



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING  
BUYRUG'I**

20 20 yil “28” сентябрь

№ 514

Тошкент.ш

**Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил  
24 августдаги 502-сонли қарори ижросини таъминлаш, ТТАнинг Зулфия  
номидаги маҳсус стипендияси ва кўкрак нишонини таъсис этиш  
тўғрисида**

Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 24 августдаги “Атоқли адиблар ва мутафаккирларимиз ижодий меросини ёшлар ўртасида тарғиб қилиш ҳамда Адиблар хиёбонидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 502-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида

**Б У Ю Р А М А Н:**

1. Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 24 августдаги “Атоқли адиблар ва мутафаккирларимиз ижодий меросини ёшлар ўртасида тарғиб қилиш ҳамда Адиблар хиёбонидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 502-сонли қарори ижро учун қабул қилинсин.

2. Ёшлар билан ишлаш бўйича проректор Т.А.Бобомуратов, барча факультет деканлари (Б.Т.Холматова, А.А.Хамраев, Ф.И.Саломова, У.Э.Эралиев, Ж.Ж.Исройлов, А.А.Имомов), Тиллар кафедраси мудири Р.М.Абдуллаева, Хотин қизлар кенгаши раиси Л.Қ.Абдуқодирова, Матбуот котиби С.Д.Норқуловларга:

- мазкур қарорнинг З-иловасига мувофиқ Тошкент тиббиёт академиясининг Зулфия номидаги стипендияси ва кўкрак нишонларини таъсис этиш бўйича Низоми тасдиқлансин.

2.1. Уқув ишлари бўйича проректор Ш.А.Боймурадов, Ёшлар билан ишлаш бўйича проректор Т.А.Бобомуратов, Ишлар бошқармаси бошлиги А.А.Абдушукуров, режа-молия бўлими бошлиги Ф.Б.Тошпұлатовларга:

- 2020/2021 уқув йилидан бошлаб Низомга мувофиқ ТТА талабаларининг стипендия жамгармаси ҳисобидан Зулфия номидаги маҳсус стипендия ҳамда кўкрак нишони таъсис этилсин.

2.2. Барча факультет деканлари (Б.Т.Холматова, А.А.Хамраев, Ф.И.Саломова, У.Э.Эралиев, Ж.Ж.Исройлов, А.А.Имомов), Тиллар кафедраси мудири Р.М.Абдуллаева, Матбуот котиби С.Д.Норқулов, Хотин қизлар кенгаши раиси Л.Қ.Абдуқодироваларга:

- барча факультетларда Зулфия номидаги маҳсус стипендия ва кўкрак нишонларини таъсис этиш бўйича Низом талаблариға тўлиқ жавоб берадиган фаол талабаларга маҳсус стипендия тақдим этилсин.

2.3. Ёшлар билан ишлаш бўйича проректор Т.А.Бобомуратов, Ишлар бошқармаси бошлиғи А.А.Абдушукуров, режа-молия бўлими бошлиғи Ф.Б.Тошпўлатовларга:

- 502-қарорнинг 3-бандига мувофиқ 2020/2021 ўқув йилидан бошлаб ТТАда илмий – адабий маслаҳатчи лавозими жорий этилсин;

- ТТА Матбуот котиби, Ўзбекистон миллий аҳборот агентлиги муҳбири Г.Т.Мирзаева жамоатчилик асосида илмий – адабий маслаҳатчи этиб белгилансин ва ТТАнинг молиявий имкониятларидан келиб чиқиб бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан рағбатлантириб борилиши назарда тутилсин.

3. Ушбу буйруқ ижросининг назоратини ўқув ишлари бўйича проректор Ш.А.Боймурадов зиммасига юқлатилсин.



Л.Н.Туйчиев

**Киритилди:**

Ёшлар билан ишлаш, маънавият  
ва маърифат бўлими бошлиги



М.А.Хасанова

**Келишилди:**

Укув ишлари бўйича проректор



Ш.А.Боймурадов

Ёшлар билан ишлаш бўйича проректор



Т.А.Бобомуратов

Ишлар бошқармаси бошлиги



А.А.Абдушукуров

Режа-молия бўлими бошлиги

Ф.Б.Тошпўлатов

Хукуқшунос

А.А.Алимов

## Тошкент тиббиёт академиясида шоира Зулфия номидаги махсус стипендия ва кўкрак нишонини тъисис этиш тўғрисида НИЗОМ

### 1. Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом Тошкент тиббиёт академияси (кейинги ўринларда ТТА) талабаларига Зулфия номидаги махсус стипендия (кейинги ўринларда - махсус стипендия) тайинлаш ва тўлаш, шунингдек, Зулфия номидаги кўкрак нишони (кейинги ўринларда - кўкрак нишони) билан тақдирлаш тартибини белгилайди.

2. Махсус стипендия ва кўкрак нишони ТТАда Зулфия ҳаёти ва ижодини урганиш, фаолиятини ёритиш, илмий тадқиқ қилиш ҳамда тарғиб этиш йўналишида изланиш олиб бораётган, алоҳида фаоллик кўрсатган ўқитувчи ва талабаларни рағбатлантириш мақсадида тъисис этилади.

### 2-боб. Зулфия номидаги махсус стипендияларни тайинлаш тартиби ва мезонлари

3. Махсус стипендия квотаси ТТАдаги факультетлар сонидан келиб чиқиб, ҳар бир факультет бўйича биттадан алоҳида-алоҳида ажратилади.

4. Махсус стипендия қўйидаги мезонларга жавоб берадиган ТТАнинг кундузги таълим шаклида таҳсил олаётган бакалавриатининг 1-3-босқич ҳамда магистратурасининг 1-босқич талабаларига берилади:

- махсус стипендия номига тъисис этилган адабнинг ҳаёти ва ижодини урганиш, фаолиятини ёритиш, илмий тадқиқ қилиш ва тарғиб этиш йўналишида изланиш олиб бориш;

- адабиёт ва китобхонликни кенг тарғиб қилиш йўналишида алоҳида фаоллик кўрсатиш;

- адабиёт ва китобхонликка доир конференцияларда (танловларда) қатнашиш;

- нашр этилган ишларнинг (асарларнинг) мавжудлиги.

5. Махсус стипендия тайинланишида талабгорларнинг ушбу Намунавий низомнинг 4-бандида белгиланган мезонларга мувофик билим ва ижодий тайёргарлик даражасини синовдан ўтказиш максадида ТТАтомонидан:

- махсус стипендияга талабгорлар орасидан танлаб олиш учун таълим йўналишлари ва адабиёт соҳасидаги мутахассислардан иборат танлов комиссияси (кейинги ўринларда - Танлов комиссияси) тузилади ва унинг иш тартибини белгилайди;

- адилар ҳаёти ва ижоди бўйича тест синовлари (кейинги ўринларда - тест синови) саволларини тасдиқлайди. Талабгорлар дастлабки кўриб чиқиш учун факультет илмий кенгашига ҳар йили 20 марта қадар қўйидаги хужжатларни топширадилар:

- синов дафтарчасидан күчирма (үзлаштириш күрсаткичи);
- кафедра тавсияномаси;
- ижодий (илмий) иш, унинг аннотацияси ва тақриз (мавжуд бўлса);
- мураббийнинг фикр-мулоҳазалари;
- муайян адаб ҳаёти ва ижоди ҳамда фаолиятини (оммавий ахборот воситаларида, ижтимоий тармоқларда ва бошқа) тарғиботи бўйича материаллар;
- муайян адаб ҳаёти ва ижодини, фаолиятини тадқиқ қилиш бўйича республика ва халқаро миқёсдаги журналларда чоп этилган якка муаллифликдаги илмий мақолалар, ўтказилган анжуманлардаги фаол иштирокини тасдиқловчи ҳужжат (асл нусхаси);
- ўз соҳаси бўйича халқаро ёки республика даражасидаги кўргазма, баннерлар, фестиваль, симпозиум, танлов ва бошқа нуфузли тадбирлардаги иштироки ва натижаларга эришганлиги (мавжуд бўлса) тўғрисида тасдиқловчи ҳужжат.

Барча ҳужжатлар икки нусхада, ҳар бир нусхаси алоҳида жилда жойланган ҳолда тақдим қилинади. Ҳар бир жилд муқовасида тақдим қилаётган факультетнинг номи, талабгорнинг исми ва фамилияси, ишнинг номи кўрсатилган бўлади.

7. Факультет илмий кенгashi ҳар йили 31 марта қадар талабгорлар томонидан тақдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқиб, маҳсус стипендияга номзодларни тавсия этиш, номзодликка талабгорларнинг ўқишдаги ва ижодий (илмий) фаолиятидаги муваффақиятларини баҳолаш учун муҳокамага қўяди.

Муҳокамадан сўнг яширин овоз бериш йўли билан энг муносиб талабгорлар танлаб олинади. Бунда талабгор ва унинг иши учун овоз беришда иштирок этган кенгаш аъзоларининг учдан икки қисмидан ортиғи овоз берганда, номзод талабалар маъқулланган ҳисобланади ва уларнинг номзодини факультет илмий кенгashi Танлов комиссиясига киритиш мақсадида факультет деканатига тақдим этади.

Факультет деканати ҳар йили 10 апрелга қадар номзодларнинг ҳужжатларини Танлов комиссиясига тақдим этади.

8. Танлов комиссияси:

- ҳар йили 20 апрелга қадар талабгорлар билан тест синови ҳамда сухбат ўтказади;
- ҳар йили 25 апрелга қадар номзодларнинг сўнгги танловини яширин овоз бериш йўли билан ташкил этади, бунда талабгор ва унинг иши учун овоз беришда иштирок этган комиссия аъзоларининг учдан икки қисми ёқлаб овоз берганда, ушбу номзодни маҳсус стипендия тайинлаш учун тавсия қиласи;

- ҳар йили 27 апрелга қадар маҳсус стипендия тайинлаш учун тавсия этиш тўғрисидаги қарорни ТТА илмий кенгашига тақдим этади.

9. Танлов комиссиясининг маҳсус стипендияни тайинлаш тўғрисидаги қарори асосида ҳар йили 30 апрелга қадар ТТА илмий кенгашининг қарори қабул қилинади. ТТА илмий кенгашининг маҳсус стипендияни тайинлаш тўғрисидаги қарори ректор буйруғи асосида кучга киради.

10. Махсус стипендияга сазовор бўлган талабаларга ҳар йили 20 майга қадар “Адиблар номидаги махсус стипендия совриндори” гувоҳномаси (кейинги ўринларда - гувоҳнома) берилади.

11. Махсус стипендия талабаларга ҳар йили, бир ўкув йили учун 1 сентябрдан бошлаб белгиланган микдорга қатъий риоя қилинган холда тайинланади.

Махсус стипендия микдори Вазирлар Маъкамасининг 2020 йил 31 январдаги 59-сон қарори 2-иловасининг 2-бандига мувофиқ белгиланади.

12. Талаба ўқишини бошқа олий таълим муассасасига кўчирганда ёки академик таътил олганда махсус стипендия тўланмайди. 4-босқич талабалариға махсус стипендия ўқиган даври учун тўланади.

### **3-боб. Адиблар номидаги кўкрак нишонлари билан тақдирлаш тартиби**

13. Кўкрак нишони билан ТТАда маданият ва маърифат соҳасини ривожлантириш, адиблар ҳаёти ва ижодини чукур ўрганиш ҳамда ахоли ўртасида, шунингдек, дунё миқёсида кенг тарғиб қилиш борасида юкори натижаларга эришган ТТАнинг профессор-ўқитувчи ва талаба-ёшлари тақдирланади.

14. Кўкрак нишони билан ушбу Намунавий низомга мувофиқ ТТА ректори тақдирлайди.

15. ТТАда кўкрак нишони билан тақдирлаш учун номзодларни танлаш ва тайинлаш бўйича ишчи груп (кейинги ўринларда - ишчи груп) тузилади.

Ишчи груп таркибиға адабиётшунос олим ва мутаҳассислар, шунингдек, фуқаролик жамияти институти вакиллари киритилади. Ишчи груп таркиби ТТА ректори томонидан тасдиқланади.

Ишчи груп Низомга мувофиқ кўкрак нишонига тавсия этилган номзодлар хужжатларининг холис ваadolатли кўриб чиқилиши учун масъул.

16. Кўкрак нишони квотаси ТТАдаги факультетлар сонидан келиб чиқиб, ҳар бир факультет бўйича биттадан ажратилади.

ТТАнинг таркибий бўлинмалари ва тегишлилиги бўйича деканатлари кўкрак нишони билан тақдирлаш бўйича таклифларни ТТАнинг Ёшлар билан ишлаш, маънавият ва маърифат бўлимига ҳар йили 1 апрелга қадар тақдим этади.

Ёшлар билан ишлаш, маънавият ва маърифат бўлими номзодлар бўйича таклифларни белгиланган тартибда кўриб чиқади ҳамда ҳар йили 20 апрелга қадар ТТА ишчи гуру ҳига тақдим этади.

17. Кўкрак нишонига тавсия этилган номзодларни кўриб чиқиш бўйича ишчи груп йиғилишида номзодларнинг хужжатлари ўрганилиб, ҳар йили 1 майга қадар энг муносиб номзодлар тўғрисида якуний хулоса қабул қилинади ҳамда ТТА ректорига тақдим этилади.

ТТА ректорининг кўкрак нишони билан тақдирлаш тўғрисидаги буйруғи ҳар йили 8 майга қадар чиқарилади.

18. Кўкрак нишони ва унинг гувоҳномаси ҳар йили 20 майга қадар ТТА ректори томонидан тантанали равишда топширилади.

19. Кўкрак нишони билан тақдирланган шахслар базавий ҳисоблаш миқдорининг уч баравари миқдорида бир марта тўланадиган пул мукофоти оладилар.

Бир марта тўланадиган пул мукофотлари ТТАнинг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан (ўқитишининг базавий қиймати миқдоридан ошадиган қисмида тўлов-контракт асосида ўқишидан тушадиган тушумлар), ички имкониятлардан келиб чиқиб молйялаштирилади.

20. Бир шахс кўкрак нишони билан бир марта мукофотланади.

Кўкрак нишони давлат мукофотларидан кейин кўкракниң чап томонига тақилади.

#### **4-боб. Кўкрак нишонининг тавсифи**

21. Кўкрак нишони 0,25 микрон қалинликда олтин рангли мис қотишимасидан тайёрланади ва диаметри 34 миллиметрли доира шаклида бўлади.

Кўкрак нишонининг марказида адиб қиёфаси акс эттирилади. Кўкрак нишонининг айланаси бўйлаб, юқори қисмида оқ эмаль фонида адибнинг таҳаллуси ёки исми ёзилган бўлади. Айлананинг қути қисмида адиб каламига мансуб хикматли сўз жойлаштирилиши мумкин. Ҳарфлар баландлиги - 2,2 миллиметр.

22. Кўкрак нишонининг орқа томонида Ўзбекистон Республикаси Давлат герби тасвирланади.

Кўкрак нишонининг қалинлиги - 3 миллиметр.

Ёзув ва тасвирлар - бўртма.

Кўкрак нишонининг олд ва орқа томонларининг четлари қабарик доира билан ўралган бўлади.

Кўкрак нишони илмоқ ва ҳалқа ёрдамида беш қиррали қадагичга уланади.

Қадағичнинг орқа томонига кўкрак нишонини кийимга тақиб қўйиш учун тўноғич куринишидаги мослама ўрнатилади.

23. Кўкрак нишонининг тавсифи Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда ТТА томонидан тасдиқланади.

#### **5-боб. Якунловчи коидалар**

24. Кундалик дарсларни ўзлаштирмайдиган, ўқув интизомини ва одоб аҳлоқни бузган талабаларни ўқув йили мобайнида факультет кенгашининг тавсиясига биноан ТТА ректори буйруғи асосида маҳсус стипендиядан маҳрум қилиниши мумкин.

25. Маҳсус стипендия ва кўкрак нишони билан тақдирлаш бўйича ариза ва шикоятлар қонун ҳужжатларида белгиланган.